



O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON O‘RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YUKSAK DARAJAGA KO‘TARILGANI ALOHIDA TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-iyul kuni rafiqasi bilan birga davlat tashrifi bilan Qirg‘izistonga keldi.



Cho‘lponota shahridagi “Issiqko‘l” xalqaro aeroportida ularni Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va uning rafiqasi kutib oldi.

Oliy martabali mehmonlar sharafiga ikki davlat bayroqlari ko‘tarilib, faxriy qorovul saf tordii.

Shundan so‘ng Cho‘lponota shahridagi Chingiz Aytmatov nomidagi “Ruh Ordo” madaniyat markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordii. O‘zbekiston va Qirg‘iziston davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarov faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini bir-birlariga tanishtirdilar.

“Ruh Ordo” madaniyat markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan tor doiradagi va rasmiy delegatsiyalar a‘zolari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston—Qirg‘iziston hartomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda O‘zbekiston — Qirg‘iziston munosabatlari har qachongidan ham yuksak darajaga ko‘tarilganini alohida ta’kidladi.

So‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 10 barobarga oshib, o‘tgan yil yakuni bilan 1,2 milliard dollarga

yetdi. 450 ta qo‘shma korxona tashkil etildi, kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Taraqqiyot fondi samarali faoliyat yuritmoqda.

Shaharlar o‘rtasida 15 ta aviaqatnov, 5 ta avtobus yo‘nalishi yo‘lga qo‘yilgan.

Bu galgi tashrif arafasida Hukumatlararo komissiya, Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlari, biznes-forum, rektorlar va tahliliy markazlar vakillarining uchrashuvlari, O‘zbekiston madaniyati kunlari hamda qator boshqa tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Muzokaralar davomida tomonlar parlamentlar, hukumatlar, vazirlik, idora va hududlar, ishbilarmon doiralar va ekspertlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirishga kelishib oldilar. Davlatlararo kengash tuzishga qaror qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, jumladan, BMT, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi hamda boshqa ko‘p tomonlama platformalar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zaro savdo hajmini 3 milliard dollarga yetkazish vazifasidan kelib chiqib, yaqin fursatda import o‘rmini faol bosish asosida o‘zaro mahsulot yetkazib berish hajmlarini oshirish choralari ko‘riladi. Shuningdek, ikki davlat poytaxtlarida savdo uylari va vakolatxonalari ochildi.

Ustuvor yo‘nalishlarda sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bunda energetika, geologiya, muhim mineralar, logistika, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, to‘qimachilik

va boshqa sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan biznes forumi doirasida yangi savdo shartnomalari va investitsiya kelishuvlarining to‘plami qabul qilindi.

Energetika sohasidagi hamkorlik strategik yo‘nalish sifatida belgilandi. Qambarota GES-1 qurilishi loyihasi bo‘yicha bitimni imkon qadar tezroq imzolab, uni amaliy bosqichga o‘tkazish muhimligi ta’kidlandi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan yirik loyihaning joriy holati yuzasidan fikr almashildi.

Transport sohasida o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash maqsadida mazkur temir yo‘l bo‘ylab chegaraoldi va savdo-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, ruxsat berish tartib-taomillarini raqamlashtirish, avtotashuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga kelishib olindi.

Ikki mamlakat hududlari savdo-iqtisodiy hamkorlikning o‘shish nuqtalari ekani ta’kidlandi.

Bu borada joriy yil yakuniga qadar barcha viloyatlar ishtirokida birinchi Hududlar forumi o‘tkazilishi hamda ularning o‘zaro tashriflari jadvali tasdiqlanishi belgilab olindi.

Madaniyat, yoshlar, turizm, ta’lim, ilm-fan va sport sohalaridagi faol almashinuvlar davom ettiriladi.

Muzokaralar davomida Bosh vazir o‘rinbosarlarining savdo-iqtisodiy kun tartibi bo‘yicha aniq takliflarni o‘zi ichiga olgan axborotlari tinglandi.

Yakunda Shavkat Mirziyoyev Sadir Japarovni o‘zi uchun qulay vaqtda O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar.

Shuningdek, davlat rahbarlari huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘ldi. Shu jumladan:

— O‘zbekiston — Qirg‘iziston davlat chegarasining uchastkalari to‘g‘risida shartnoma;

— “Chashma” bulog‘idan birgalikda foydalanish to‘g‘risida bitim;

— Davlat ijtimoiy sug‘urtasi va pensiya ta‘minoti to‘g‘risida bitim;

— Oliy ta‘lim sohasidagi kreditlarni o‘zaro tan olish to‘g‘risida bitim;

— Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida bayonnomma;

— Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga bayonnomma;

— Qirg‘iz Respublikasining Issiqko‘l viloyati hududida joylashgan kurort-rekreatsiya xo‘jaligi obyektlari to‘g‘risidagi bitimga bayonnomma;

— 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan madaniyat sohasidagi tadbirlar rejas;

— 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan turizm sohasidagi qo‘shma harakatlar rejas;

— Qirg‘iz Respublikasi Issiqko‘l viloyati Ton tumanida joylashgan “Bo‘ston” pansionati to‘g‘risida shartnoma;

— 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan agrosanoat majmuasi sohasidagi amaliy chora-tadbirlar rejas.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni I darajali “Manas” ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Qirg‘iz Respublikasining yuksak mukofotini davlatimiz rahbariga Prezident Sadir Japarov topshirdi.

O‘zbekiston yetakchisi qardosh Qirg‘iziston Prezidenti va xalqiga chuqur minnatdorlik bildirib, ushbu mukofotni ikki xalq o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalarini mustahkamlash borasidagi birgalikdagi sa‘y-harakatlar hamda O‘zbekiston va Qirg‘iziston munosabatlarini yangi tarixiy bosqich — ittifoqchilik darajasiga olib chiqishga qaratilgan mushtarak intilishlarning yuksak e‘tirofi sifatida qabul qilishini ta’kidladi.

1996-yilda ta‘sis etilgan “Manas” ordeni Qirg‘iz Respublikasining oliy davlat mukofotlaridan biri hisoblanadi. Respublika va xorij fuqarolariga davlatchilik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, xalqlar o‘rtasida tinchlik, do‘stlik va o‘zaro anglashuv rishtalarini rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunlari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Mamlakatimiz yetakchisi Qirg‘izistonga bu galgi davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekiston — Qirg‘iziston ko‘p qirrali hamkorligida yangi sahifani ochganini ta’kidladi.

Ushbu sammitga birgalikda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilgani qayd etildi. Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi, biznes-forum, rektorlar va tahliliy markazlar vakillarining uchrashuvlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Ayni paytda Qirg‘izistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari doirasida turli tadbirlar o‘tmogda.

Fursatdan foydalanib, Prezidentimiz qardosh Qirg‘izistonni 2027-2028-yillarda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy bo‘lmagan a‘zosi etib saylangani munosabati bilan samimiy tabrikldi. Bu mamlakat va butun Markaziy Osiyoning nufuzi yuksalayotganining e‘tirofidir.

Bugungi muzokaralar har doimgidek ochiq, konstruktiv va do‘stona ruhda o‘tgan katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarning barcha jabhalarini atroflicha muhokama qildilar. Bosh vazir o‘rinbosarlarining savdo-iqtisodiy sohadagi aniq rejalarni o‘z ichiga olgan axborotlarini tingladilar.

Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning imzolinishi sammitning eng muhim natijasi bo‘ldi.

Ushbu hujjat ikki tomonlama sheriklikni davlatlararo aloqalarning eng yuqori darajasiga olib chiqadi.

Endi bizning asosiy vazifamiz — hamkorligimizni mamlakatlarimiz va xalqlarimiz taraqqiyoti hamda farovonligiga xizmat qiladigan yangi mazmun, loyiha va tashabbuslar bilan boyitish, — dedi davlatimiz rahbari.

Ikki davlat Prezidentlari raistligida Davlatlararo kengashni tuzish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bu ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash va hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilashning asosiy mexanizmi bo‘ladi.

Shu bilan birga, tomonlar bundan buyon ham siyosiy muloqotni rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro maydonlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlash va pozitsiyalarni yaqindan muvofiqlashtirishga tayyor ekanligini tasdiqladilar.

Yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratildi. So‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 10 barobarga oshib, o‘tgan yil yakuni bilan 1,2 milliard dollardan ziyodni tashkil qildi. Jadal o‘shish sur‘atlari saqlanib qolayotganini inobatga olib, ushbu ko‘rsatkichni 3 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Yetakchilar sanoat kooperatsiyasining yangi o‘shish nuqtalarini, eng avvalo, ikki mamlakat iqtisodiyotlari bir-birini to‘ldiruvchi sohalarida yaratishga alohida to‘xtaldilar.

Bu borada kuni kecha bo‘lib o‘tgan biznes forumi doirasida energetika, elektrotexnika, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik sohalarida yangi loyihalar kelishildi. Shuningdek, xomashyo resurslarini birgalikda qazib olish bo‘yicha aniq rejarlar belgilandi.

Bunday loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shma Taraqqiyot fondi salohiyatidan samarali foydalaniladi.

Ikki mamlakatning transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqligi va tranzit salohiyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi bo‘yicha strategik loyihani amalga oshirish ishlari jadal davom etayotgani qayd etildi.

Mazkur temir yo‘li bo‘ylab savdo-logistika infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish, savdo va transport jarayonlariga raqamli yechimlarni faol joriy etish, avtotashuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga kelishib olindi.

Suv-energetika sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasida konstruktiv hamkorlikni davom ettirishga tayyorlik tasdiqlandi. Qambarota GES-1ni qurish to‘g‘risidagi bitimni imzolash jarayoni tezlashtiriladi.

Ikki mamlakat hududlarining salohiyatidan faol foydalanish zarurligi ta’kidlandi. Yil yakuniga qadar O‘zbekistonda yangi formatdagi birinchi Hududlar forumi o‘tkaziladi.

Madaniyat, ta’lim, ilm-fan, yoshlar siyosati va turizm sohalarida faol almashinuvlarni davom ettirishga tayyorlik tasdiqlandi.

Yetakchilar Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalarini ham atroflicha muhokama qildilar.

Yakunda Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu sammitda erishilgan kelishuvlar qardosh xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Cho‘lponota shahriga tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlari bilan birgalikda Qirg‘izistondagi ilk xalqaro toifadagi golf klubining tanalanli ochilish marosimida ishtirok etdi.

Yetakchilar bu yerda barpo etilgan zamonaviy sport va turizm infratuzilmasi bilan tanishdilar. Yangi majmua golfni ommalashtirish, sport turizmini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Davlat rahbarlari qardosh Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va xalqini yangi obyektning ochilishi bilan tabriklab, mamlakatning turizm salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatlar tiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘iz Respublikasiga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘Z



MARKAZIY OSIYO BIRDAMLIGINI MUSTAHKAMLASHDA MUHIM QADAM

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘izistonga davlat tashrifi nafaqat ikki qardosh va qo‘shni mamlakat o‘rtasidagi aloqalar, balki butun mintaq uchun katta ahamiyatga ega voqea ekani bilan ham tarixdan joy oladi.

Tashrif doirasida tomonlar chegaraoldi hamkorligi, suv resurslarini boshqarish, infratuzilma, turizm, ta’lim va boshqa sohalariga oid 10 dan ziyod hujjatni imzoladi.

Tabiiyki, eng muhim voqea O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iz Respublikasi Prezidentlari tomonidan ikki davlat o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari

to‘g‘risidagi shartnomaning imzolinishi bo‘ldi. Mazkur hujjat Toshkent va Bishkek o‘rtasidagi munosabatlarni O‘zbekistonning Qozog‘iston, Tojikiston va Ozarbayjon bilan munosabatlariga teng bo‘lgan ittifoqchilik darajasiga ko‘tardi.



Davomi 2-betda



“Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” yangi bino yoki obod ko‘cha emas, inson yashaydigan, ishlaydigan, ta’lim oladigan va muammosini hal qiladigan yaxlit muhitdir. Me’moriy tartib infratuzilma, tadbirkorlik, ijtimoiy xizmat va jamoat makonlari bilan bir dasturda qurilsa, tashqi qiyofa ichki mazmunga ega bo‘ladi.

(Ikkinchi maqola)

Tashqi ko‘rinishdan ichki mazmunga

Mahalla markazi, kutubxona, tibbiyot punkti, kasb va sport infratuzilmasi inson hayotiga xizmat qiladigan yagona tizim bo‘lishi kerak. Tuman markazida hal qilingan masala mahallaning o‘zida yechim topsa, vaqt tejaladi va ishonch ortadi. Xalqchilik uchun zamonaviy binoning o‘zi emas,

muloqotga tayyor xodim, aniq xizmat va tushunarli qaror zarur.

Yangi qiyofa milliy xotira va zamonaviylikni birlashtiradi. Kutubxona, hunarmandlik va keksa avlod tajribasi mahallani madaniy xotira makoniga aylantiradi. Milliy qadriyat yoshning bilimi, ayolning mehnati, nogironligi bo‘lgan shaxsning teng ishtiroki va keksaning munosib xizmat olishi bilan uyg‘unlashasiga jamiyatni birlashtiradi.



Davomi 3-betda

2026-yil 31-iyul, 154-son



Munosabat



“KELAJAK O‘YINLARI”: ZAMONAVIY FIKRLASHNI TARG‘IB QILUVCHI XALQARO PLATFORMA



Aksavli TUMISHOVA,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

Prezidentimizning Ostona shahriga amaliy tashrifi va “Kelajak o‘yinlari” III xalqaro musobaqasining ochilish marosimida ishtirok etgani ana shu izchil hamkorlikning yana bir muhim ko‘rinishi bo‘ldi. Mazkur tashrif ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash barobarida Markaziy Osiyoda innovatsion taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Hozir dunyoda raqobatning asosiy mezonini tabiiy boyliklar emas, balki bilim, innovatsiya va yuqori texnologiyalardir. Shu nuqtayi nazardan, “Kelajak o‘yinlari” oddiy sport musobaqasi emas, balki intellektual salohiyat, raqamli texnologiyalar va zamonaviy fikrlashni targ‘ib qiluvchi xalqaro platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yerda jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan, yangilik yaratadigan yoshlar salohiyati yuzaga chiqadi. Binobarin musobaqlarda

Bugun Markaziy Osiyo dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Mintaqada o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik muhiti mustahkamlanayotgani barqaror taraqqiyotning asosiy omiliga aylandi. Bu jarayonda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston vakillari fital-futbol, lazertag va raqs yo‘nalishlari bo‘yicha bellashadi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, AT sohasini qo‘llab-quvvatlash va inson kapitaliga qatnashgani mamlakatimizdagi islohotlarni xalqaro hamjamiyat e‘tirof etayotganining amaliy ifodasi sifatida ham baholanadi.

E‘tiborli jihati shundaki, bunday nufuzli tadbirlar davlatlar o‘rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash bilan birga yoshlar, ilm-fan, ta‘lim va innovatsiyalar sohasida yangi hamkorlik imkoniyatlarini ochadi. Bu esa Markaziy Osiyoning raqobatbardosh va texnologik taraqqiy etgan mintqa sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ostonadagi “Kelajak o‘yinlari” va Prezidentimizning ushbu musobaqadagi ishtiroki O‘zbekiston tashqi siyosatining zamonaviy mazmunga ega ekanini yana bir bor namoyon etdi. Mamlakatimiz bugun nafaqat mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, balki innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va inson kapitaliga tayangan taraqqiyot modelini qo‘llab-quvvatlash orqali Markaziy Osiyoning kelajagini birgalikda barpo etishga munosib hissa qo‘shmoqda.



Yoxan ENGVALL,
Shvetsiya xavfsizlik va taraqqiyot
instituti katta tahlilchisi,
Markaziy Osiyo bo‘yicha
ekspert

Boshlanishi 1-betda

Yangi shartnoma 2017-yil 5-oktabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iz Respublikasi o‘rtasida strategik sheriklik, do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ishonchni mustahkamlash to‘g‘risidagi deklaratsiya bilan boshlangan ijobiy o‘zgarishlarni huquqiy jihatdan mustahkamladi.

Tarixga murojaat qilsak, qariyb 9 yil avval imzolangan ushbu deklaratsiya O‘zbekiston yetakchisi tomonidan qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash va konstruktiv hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyaning dastlabki ifodalardan biri edi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi ittifoqchilik kelishuvi uzoq davr mobaynida Markaziy Osiyodagi eng murakkab ikki



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

MARKAZIY OSIYO BIRDAMLIGINI MUSTAHKAMLASHDA MUHIM QADAM



Nuqtayi nazar

tomonlama munosabatlardan biri hisoblangan davlatlararo aloqalar tubdan o‘zgariganing yaqqol namoyonidir.

Yigirma besh yil davomida bu davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar yaxshi qo‘shnichilik ruhidan ancha uzoq bo‘lganidan nafaqat mintqa, balki xalqaro hamjamiyat ham yaxshi xabardor edi. Bahsli chegara hududlari, nazorat-o‘tkazish punktlarining vaqti-vaqti bilan yopilishi, suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha kelishmovchiliklar, shuningdek, 2010-yilda Qirg‘iziston janubida yuz bergan voqealardan keyingi millatlararo zo‘ravonliklar keskin muhitning saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi.

Toshkent va Bishkek o‘rtasida siyosiy muloqot jiddiy cheklanib, o‘zaro ishonchsizlik muhiti uzoq vaqt davom etdi.

Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanishi bilanoq ushbu chigal va xavfli vaziyatni o‘zgartirishga bel bog‘ladi. O‘zbekistonning yangi yetakchisi Markaziy Osiyoni tashqi siyosatning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, “qo‘shnilar bilan nol muammo” tamoyilini ilgari surdi, shu asosda uni izchilik, donishmandlik va qat‘iy siyosiy iroda bilan hayotga tatbiq etishga kirishdi.

Tarixan qisqa davr ichida ushbu siyosat o‘zaro hududiy da‘volar va suv resurslari bilan bog‘liq bahslarni o‘z ichiga olgan, bir-biri bilan qorishib ketgan mintaqaviy ziddiyatlar ildizlariga zarba berdi, deysishga to‘liq asoslar mavjud.

Shavkat Mirziyoyev boshqaruvida O‘zbekiston “Umumiy uyimiz — Markaziy Osiyo”da tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash g‘oyasi asosida barcha qo‘shni davlatlar bilan yaqin ikki tomonlama munosabatlarni astoydil yangi bosqichga olib chiqdi.

Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayoni doirasida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘n yildan ham kam vaqt ichida o‘zaro ishonchsizlik, yopiq chegaralar va muntazam kelishmovchiliklardan strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari gacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

Yaqinlashuv har ikki tomon uchun ham aniq manfaatlar keltirishi tabiiy.

Qirg‘iziston uchun O‘zbekiston bilan munosabatlarni mustahkamlash qariyb 40 millionli nufusga ega bozorga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish orqali katta savdo-iqtisodiy istiqbollarni ochadi. Shuningdek, bu transport bog‘liqligini yaxshilash, suv va energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston uchun esa asosiy iqtisodiy hamkorlardan biri bo‘lgan Xitoy yo‘nalishida Qirg‘iziston hududidan o‘tuvchi transport yo‘llaridan barqaror, shuningdek, hayotiy ahamiyatga ega suv resurslaridan birgalikda foydalanish muhim afzalliklarni taqdim etadi. Ikki davlat uchun ham ikki tomonlama savdoni yanada kengaytirish va diversifikatsiyalash barqarorlik va farovonlikni ta‘minlashda, ayniqsa, aholi zich joylashgan Farg‘ona vodiysida katta ahamiyatga ega.

Biroq imzolangan shartnomaning ahamiyati O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar doirasidan ancha kengdir. So‘nggi yillarda ishonchsizlikdan oziqlanuvchi raqobat emas, balki o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlik Markaziy Osiyodagi mintaqaviy siyosatning asosiy tamoyiliga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida tuzilgan yangi shartnoma mintaqadagi besh davlat “tashqi kuchlarga tayanish” o‘rniga, o‘zaro ishonchli va do‘stona hamkorlikka asoslangan yangi Markaziy Osiyo shakllanayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ixtiyoriy hamkorlikni

rivojlantirishda “harakatga keltiruvchi kuch” rolini bajarmoqda. Bu nihoyatda muhim strategik ahamiyatga ega: o‘zaro ziddiyatlardan xoli va yanada chuqurroq integratsiyalashgan mintqa tashqi kuchlar bilan tarqoqlik emas, balki birdamlikka tayanib muloqot o‘rnatishiga imkon bermoqda.

Shu ma‘noda, mazkur shartnoma mintaqaviy birlik izchil mustahkamlanib borishining navbatdagi bosqichi sifatida mintqa davlatlarining muvozanatli va ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritish imkoniyatini kengaytiradi.

Ishonchsizlik va ziddiyatlar tobora ortib borayotgan bir davrda Markaziy Osiyoda kechayotgan ijobiy jarayonlar dunyoning boshqa mintaqalari uchun ham muhim saboq bo‘lishi mumkin.

Ittifoqchilik shartnomasi ko‘p yillik nizolarni siyosiy yetakchining qat‘iy irodasi va diplomatik sa‘y-harakatlari orqali tinch yo‘l bilan hal etilishi mumkinligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekistonning Qirg‘iziston va boshqa qo‘shni mamlakatlar bilan qisqa davr ichida to‘plagan mazkur tajribasi sobiq ittifoq hududi va dunyoning boshqa nuqtalarida uzoq yillar davomida saqlanib qolayotgan davlatlararo munosabatlardan keskin ajralib turadi.

Bu noyob tajriba chegaraviy kelishmovchiliklar va tabiiy resurslar tanqisligini kuch ishlatish yo‘li bilan emas, balki mustokara va kelishuvlar orqali hal etish mumkinligini yaqqol namoyon etdi.

Shavkat Mirziyoyev qarashlarida “Markaziy Osiyoda tinchlik va integratsiya o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayon” ekanini shubhasiz. Shu nuqtayi nazardan, shakllanib borayotgan yangi Markaziy Osiyo hamkorlik va tinchlik modelini Yevropa integratsiyasining tarixi bilan qiyoslash o‘rinli. Binobarin, Yevropa Ittifoqi tajribasi ham tinchlik va ixtiyoriy integratsiya bir-birini o‘zaro to‘ldirishi va mustahkamlashni, sobiq qarqiblar o‘rtasidagi hamkorlik chuqurlashuvi esa uzoq muddatli barqarorlik va umumiy farovonlikka olib kelishini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston misoli yana bir bor o‘nlab yillar davomida shakllangan shubha va ishonchsizlik oqibatlarini o‘zaro ishonchni mustahkamlash, tinchlik diplomatiyasi orqali bartaraf etish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi navbatdagi ustuvor vazifa hamkorlikning yangi bosqichi taqdim etadigan imkoniyatlardan qardosh ikki xalq farovonligi yo‘lida samarali va to‘liq foydalanish uchun barcha sa‘y-harakatlarni ishga solishdir.



Sharh

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda nihoyatda izchil va barqaror rivojlandi. Bu Markaziy Osiyodagi eng muvaffaqiyatli siyosiy yaqinlashuv namunalaridan biri sifatida e‘tirof etilyapti. Buni imzolangan hujjatlar yoki o‘tkazilgan uchrashuvlar soni bilan chamalab bo‘lmaydi.

Zero, bugun davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar mutlaqo yangi mazmun bilan boyimoqda. Keyingi yillarda ikki davlat rahbarlarining qat‘iy siyosiy irodasi va ochiq muloqotni natijasida yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va strategik sheriklik aloqalari izchil rivojlanib, amaliy natijalar bermoqda.

Ammo asosiy o‘zgarish boshqa. Jumladan, ikki tomonlama munosabatlarning oxirgi o‘n yilligini qiyoslaydigan bo‘lsak, bu o‘zgarishlar faqat erishilgan natijalar, raqamlarda emas, aksincha, o‘zgarishlar muhokama qilinayotgan masalalarning tabiatida.

Masalan, yaqin o‘tmishda ikki mamlakat o‘rtasidagi muloqotlarning asosiy mavzusi bahsli, muammoli masalalar bo‘lgan. Yaqin-yaqingacha mintqa ko‘proq yechimini kutayotgan muammolar bilan tilga olinardi. Davlat chegaralari, suv resurslari, transport aloqalari, savdo cheklovlari — bularning barchasi mintaqaning ulkan salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilardi. Bugun esa muzokaralar ravishi umuman boshqachga tus oldi.

Burilish nuqtasi 2017-yilda yuz berdi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini yo‘lga qo‘yish



Shokir G‘AFFOROV,
tarix fanlari doktori,
professor

tashabbusini ilgari surdi. Mazkur tashabbusning mohiyati oddiy, biroq strategik edi: mintqa taqdiriga daxldor masalalarni ochiq muloqot va o‘zaro ishonch ruhida birgalikda muhokama qilish. Eng asosiysi, bugun ushbu formatdagi uchrashuvlar mintaqaning strategik kun tartibini belgilaydigan asosiy maydonga aylandi.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama hamkorlikning deyarli barcha yo‘nalishida barqaror muloqot va hamkorlik mexanizmlari shakllantirildi. Hukumatlararo komissiyaning 12 ta yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Parlamentlararo komissiya samarali faoliyat yuritaypti. Hududlar, ekspertlar hamjamiyati hamda ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi aloqalar ham tobora kengayib boryapti.

Joriy yil 15-16-may kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti va Qirg‘iz Respublikasi Yosh parlamentariylari birinchi forumi bo‘lib o‘tdi.

Bular tashqi tomondan oddiy, institutsional ishdek ko‘rinishi mumkin. Aslida, aynan mana shunday tizimli muloqot siyosiy qarorlarni uzoq muddatli va barqaror sheriklik tizimiga aylantiradi. Xuddi shu tamoyil iqtisodiy hamkorlikda ham yaqqol namoyon bo‘lyapti.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama hamkorlikning deyarli barcha yo‘nalishida barqaror muloqot va hamkorlik mexanizmlari shakllantirildi. Hukumatlararo komissiyaning 12 ta yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Parlamentlararo komissiya samarali faoliyat yuritaypti. Hududlar, ekspertlar hamjamiyati hamda ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi aloqalar ham tobora kengayib boryapti.

Shu ma‘noda, o‘tgan yili 31-mart kuni Xo‘jand shahrida uch davlatning davlat chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi shartnomaning O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston rahbarlari tomonidan imzolangan tarixiy voqea bo‘ldi. Bu Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonchning yangi siyosiy madaniyati shakllanayotganining yorqin ifodasi edi. Ushbu hujjat, shuningdek, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash, butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilayotir. Tantanali ravishda ochilgan Do‘stlik stelasi esa mamlakatlarimiz

o‘rtasida mustahkamlanib borayotgan yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlarning yangi ramziga aylandi.

2016-yilda o‘zaro savdo aylanmasi 167,5 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yakunlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 1,2 milliard dollarga yetdi. Joriy yilning birinchi yarmida o‘zaro savdo hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yana 45 foiz oshdi.

Iqtisodchilar uzoq yillardan buyon bir haqiqatni ta‘kidlaydi: kapital ertangi kunga

ishonch bor joyga yo‘naltiriladi. Shu bois, bu raqamlar ortida faqat savdo hajmining o‘shishi emas, balki yangi korxonalar, qo‘shma ishlab chiqarish loyihalari, yangi ish o‘rinlari va investitsiyalar turibdi. Ularning barchasi, avvalo, kuchli siyosiy iroda va o‘zaro ishonchning amaliy natijasi.

Suv resurslari sohasidagi hamkorlik ham ana shundan kam bo‘lmagan sur‘atda rivojlanyapti. Suv xo‘jaligi bo‘yicha qo‘shma komissiya bugunga qadar 8 ta yig‘ilish o‘tkazdi. Markaziy Osiyo uchun suv har doim eng nozik va dolzarb masalalardan bo‘lib kelgan. Bugun esa ushbu masalaning tobora ko‘proq siyosiy qarama-qarshiliklar emas, balki professional hamkorlik va amaliy muloqot maydoniga aylanayotgani samara bermoqda.

Ammo yana bir omil bor. Uni na statis-tik ma‘lumotlar yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar



2026-yil 16-iyulda Mahallani rivojlantirish milliy institutini tashkil etib, “mahalla yettiligi”ni o‘qitish va muammolarga ilmiy yechim ishlab chiqish belgilandi. Ijtimoiy muhit, tozalik va daromadga qaratilgan loyihalar uchun har bir “yettilik”ka 10 million so‘mdan grant, jami 240 milliard so‘m resurs ajratiladi. Institut natijani mablag‘ o‘zlashtirilishi bilan emas, aholi farovonligi va takrorlash mumkin bo‘lgan metodika asosida baholashi kerak.

MAHALLA FENOMENI: TARIX, ISLOHOT va YUKSALISH MUTANOSIBLIGI



Naim OBLOMURODOV, tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla har kuni o‘zini qayta isbotlashi kerak. Bininging ochilishi bir kunlik tantana, ammo uning kutubxonasida bolalar o‘qishi, markazida ishsizlar kasb o‘rganishi, tibbiyot punktida aholi xizmat olishi — uzoq muddatli natija. Obodlikni saqlab qolish uni yaratishdan kam emas.

Ilmiy asoslantirish — yangi institutning vazifasi

Mahalla tizimiga yuklangan vazifalar kuni o‘zini qayta isbotlashi kerak. Bininging ochilishi bir kunlik tantana, ammo uning kutubxonasida bolalar o‘qishi, markazida ishsizlar kasb o‘rganishi, tibbiyot punktida aholi xizmat olishi — uzoq muddatli natija. Obodlikni saqlab qolish uni yaratishdan kam emas.

2026-yil 16-iyulda Mahallani rivojlantirish milliy institutini tashkil etib, “mahalla yettiligi”ni o‘qitish va muammolarga ilmiy yechim ishlab chiqish belgilandi. Ijtimoiy muhit, tozalik va daromadga qaratilgan loyihalar uchun har bir “yettilik”ka 10 million so‘mdan grant, jami 240 milliard so‘m resurs ajratiladi. Institut natijani mablag‘ o‘zlashtirilishi bilan emas, aholi farovonligi va takrorlash mumkin bo‘lgan metodika asosida baholashi kerak.

Institutning vazifasi mahallalarga yuqoridan tayyor resept tarqatish emas. U hududlarni o‘rganib, turli modellarni solishtirishi, mahalla raisi va “yettilik” a‘zolari uchun amaliy metodikalar ishlab chiqishi, ijtimoiy ta’sirni baholashi lozim. Universitetlar, ilmiy markazlar, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik shu jarayonning muhim qismi bo‘ladi.

Tadqiqotda fuqaroning ovozi birinchi o‘rinda turishi kerak. Mahalladagi o‘zgarishni jadvalda emas, odamlarning hayot tajribasida o‘rganish zarur. Bir oilaga berilgan yordam uning o‘zini qadrlashini oshirdimi? Yoshlar markazi haqiqatan yoshlarnikimi? Kurubxonadan kimlar foydalanyapti? Mahalla raisiga murojaat qilish osonlashdimi? Ilmiy yondashuv shu oddiy savollarni katta siyosat bilan bog‘laydi.

Mahalla tizimida kasbiy tayyorgarlik shunga mos o‘zgarishi lozim. Xodim huquqini, muloqotini, mediatorlikni, ijtimoiy ishini, ma’lumotlar bilan ishlashni va mahalliy iqtisodiyotni bilishi kerak. Qisqa kurslardan tashqari, tajriba almashish, ustoz-shogird tizimi va mustaqil baholash mexanizmlari yo‘lga qo‘yilsa, institutning salohiyati ortadi.

Hisobdorlik va jamoatchilik nazorati: ishonchning shartlari

Mahallada islohotlarning muvaffaqiyatini faqat ajratilgan mablag‘ yoki qurilgan obyektlar soni bilan baholab bo‘lmaydi. Odamlar qaror qabul qilish jarayonini tushunadimi? Mablag‘ qayerga sarflanayotganini biladimi? Murojaatiga berilgan javobdan qoniqadimi? Institutga ishonch shu savollarga berilgan javoblardan shakllanadi.

Jamoatchilik nazoratini ayb izlash jarayoni deb tushunish noto‘g‘ri. U qarordan oldin ehtiyojni aniqlash, jarayon davomida ma’lumot olish va natijadan keyin baholash madaniyatidir. Mahalla byudjeti, obodonlashtirish loyihasi, ish o‘rni yaratish dasturi yoki ijtimoiy yordam haqida aholiga oddiy tilda ma’lumot berilsa, fuqaro tomoshabini emas, sheriklari aylanadi.

Mahalla raisi va “yettilik” a‘zolari uchun hisobdorlikning eng muhim shakli — aholi bilan ochiq muloqot. Lekin muloqot faqat yig‘ilish va tadbirdan iborat emas. Qarorning sababi, amalga oshirish muddati, mas’uli va kechikish holati tushuntirilishi kerak. Bajarilmagan va‘dani yashirish ishonchni yemiradi, kechikish sababini ochiq aytish esa, aksincha, mas’uliyatni oshiradi.

Hisobdorlik yuqori idoralarga taqdim etiladigan hisobot bilan cheklanmasligi shart. Mahalla uyushmasi, hokimlik va vazirliklar aholi bahosini eshitishi kerak. Buning uchun mustaqil so‘rovlar, ochiq ma’lumotlar, mahalliy kengash muhokamasi va jurnalistik monitoring zarur. Mahalla haqidagi haqiqiy maqola ham ana shu nazoratning bir shaklidir: u yutuqni ko‘rsatadi, ammo muammoni yashirmaydi.

Rivojlanish muammolarni tan olishdan boshlanadi

Mahalla islohotlarida yutuqlar bilan birga hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalar bor. Birinchidan — vazifalar ko‘payishi bilan resurs va kadrlarning bir xil sur‘atda oshmasligi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi yoki ijtimoiy xodimga ko‘p vazifa yuklansa, ularning har bir ishini sifati bajarishi qiyinlashadi. Shuning uchun vakolat bilan birga vaqt, mutaxassis, transport, ma’lumot va huquqiy himoya ham berilmo‘g‘i kerak.

Ikkinchidan — mahalla avtonomiyasi bilan ma’muriy vertikal o‘rtasidagi muvozanat. Mahalla davlat topshirig‘ini bajarishi mumkin, ammo davlat idorasining quyi kabinetiga aylanmasligi kerak. Konstitutsiyada belgilangan o‘zini o‘zi boshqarish prinsipi amaliyotda ham sezilishi uchun mahalla aholisi qaror muhokamasida haqiqiy ta’sirga ega bo‘lishi zarur.

Uchinchidan — raqamlashtirish va inson muloqoti o‘rtasidagi munosabat. Elektron platforma ishini tezlashtiradi, ammo telefon, internet yoki raqamli savodxonligi yo‘q fuqaroni chetda qoldirishi mumkin. Raqamli xizmatning adolatli bo‘lishi uchun uning oflayn muqobili ham mavjud bo‘lishi shart.

To‘rtinchidan — hududlar o‘rtasidagi farq. Chiroyli shahar mahallasidagi muammo bilan olis ovuldagi muammo bir xil emas. Mahalla siyosati



differensial bo‘lmasa, “bir xil standart” ba’zi joyda samarali, ba’zi joyda ortiqcha xarajatli, yana bir joyda esa yetarsiz bo‘lib qoladi.

Beshinchidan — jamoa bosimi va shaxsiy huquqlar. Mahalla yaqinlik va ishonch muhiti bo‘lishi kerak, ammo insonning shaxsiy hayoti, tanlovi va qonuniy huquqi himoyasiz qolmasligi lozim. Profilaktika, ijtimoiy yordam va oilaviy masalalarda professional xizmatlar bilan hamkorlik shuning uchun zarur.

2026-yilgi davlat dasturida mahallada bir million kishini ish bilan ta’minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, “og‘ir” hududlarga katta infratuzilma mablag‘lari yo‘naltirish kabi vazifalar belgilangan. Bu maqsadlar katta ko‘rinadi, ammo ularning amaliy mazmuni har bir mahallada alohida hisoblanadi.

Bir mahallada ish o‘rni issiqxona, boshqasida hunarmandchilik, uchinchisida xizmat ko‘rsatish, to‘rtinchisida logistika yoki qayta ishlash bo‘lishi mumkin. Demak, iqtisodiy o‘sishning yagona modeli yo‘q. Mahalla mutaxassislari hududning tabiiy, demografik va madaniy resurslarini birlashtirsa o‘lsa, dasturlar hayotiy bo‘ladi.

Infratuzilmaga ajratiladigan mablag‘ natija zanjiri bilan bog‘lanishi kerak. Suv tarmog‘i qurildi — sanitariya yaxshilandimi? Yo‘l asfaltlandi — maktab va tibbiyot xizmatiga yetish osonlashdimi? Elektr tarmog‘i yangilandi

(Ikkinchi maqola)



— ishlab chiqarish va tadbirkorlik uchun yangi imkoniyat paydo bo‘ldimi? Har bir sarmoya uning ijtimoiy ta’siri bilan baholanishi lozim.

Bunday yondashuv davlat byudjeti uchun ham, mahalla ishonchi uchun ham muhim. Mablag‘ning ko‘pligi emas, uning aniq maqsadga xizmat qilishi, ochiq sarflanishi va saqlanishi ustuvor bo‘ladi. Mahalla taraqqiyotida “qurdik” degan fe‘ldan “ishlayapti”, “daromad beryapti”, “xavfsizlikni oshiryapti” degan natija fe‘llariga o‘tish vaqi keldi.

Mualliflik mulohazasi: mahalla obodligi nimaga qarab baholanadi?

Nazarimda, mahalla islohotlarini baholash uchun beshta mezonni doim yodda tutish kerak. Birinchidan — insonga yaqinlik: fuqaro o‘z muammosini qayerga aytishi va javobni qancha

Yangi O‘zbekistonda mahallaga berilayotgan e’tiborning ko‘lami uning vazifalari kengayganida emas, davlat va jamiyat munosabati qayta qurilayotganida ko‘rinadi. Inson idorama-idora yurmaydigan, xizmat unga yaqinlashadigan, yosh o‘z mahallasida kasb va daromad topadigan, ayol mehnati qadrlanadigan, keksa inson o‘zini yolg‘iz his qilmaydigan muhit islohotlarning eng katta natijasidir.

Mahalla obodligi tozalikdan boshlanadi, ammo ishonch, adolat va imkoniyat bilan mustahkamlanadi. Binoqni qurish mumkin, muhitni esa odamlar yaratadi. Raqamli platformaning ishonchini inson muloqoti, ajratilgan mablag‘ning samarasini ochiq qaror ta’minlaydi.

Shuning uchun 2026-yil mahalla falsafasini amaliyotga aylanitirish yilidir. Jamiyat yuksalishi har bir mahalladagi kichik, ammo haqiqiy o‘zgarishdan boshlanadi: mahalla o‘zgarsa — hayot, hayot o‘zgarsa — davlatga ishonch mustahkamlanadi.

Eshikdan eshikka emas, insonga yaqin tizim

Davlat xizmatlarining mahallaga yaqinlashishi islohotlarning eng sezilarli natijalaridan biridir. Ilgari oddiy ma’lumotnoma, nafaqa yoki imtiyoz uchun bir necha idoraga borish, navbat kutish va turli hujjatlarni yig‘ish talab etilardi. Bugun ijtimoiy xodim, mahalla raisi va boshqa mutasaddirlar orqali fuqaroning holati bir joyda o‘rganilishi, murojaatning mas’ulga yetkazilishi va natijasi kuzatilishi mumkin. Bu qulaylikning qiymati vaqt va asab tejalganida emas, inson o‘zini davlatdan uzoq emas, uning e’tiborida his qilganida ko‘rinadi.

“Fuqaro kelsin” qarashidan “xizmat fuqaroga borsin” tamoyiliga o‘tilmoqda. “Mahalla yettiligi” hozir 100 ga yaqin xizmat ko‘rsatmoqda, barcha davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich mahallaga tushirish, yil yakunigacha nogironlikni erta aniqlash, uy-joyni moslashtirish va ijtimoiy uyga joylashtirish kabi 25 turdagi xizmatni tashkil etish belgilandi. Natija xizmatlar soni emas, fuqaroning ovoragarchiligi, sifat va shikoyat imkoniyati bilan o‘lchanadi.

Biroq xizmatni mahallaga tushirish mas’uliyatni faqat quyi bo‘g‘ingga yuklash degani emas. Mahalla mutaxassisi yuqori idoralardan tezkor javob, aniq reglament va huquqiy ko‘mak olishi kerak. Agar murojaat mahallada qabul qilinib, lekin uni hal qiladigan vakolat boshqa idoraga qolsa, fuqaro yana sarson bo‘ladi. Shu bois, vertikal va gorizontal aloqa, elektron kuzatuv va shaxsiy muloqot bir vaqtda ishlashi zarur.

Davlat xizmati mahallada sifati bo‘lishi uchun xodimning muomala madaniyati ham muhim. Qonunni bilish yetardi emas, insonning vaziyatini eshitish, uni kamsitmaslik, muammoni soddada tilda tushuntirish va bajarish mumkin bo‘lmagan va‘dani bermaslik kerak. Xalqchil mahalla, avvalo, shu yerda — fuqaro bilan gaplashish uslubida namoyon bo‘ladi.

Obodlikning ko‘rinmaydigan tomoni

Mahalla obodligi faqat ko‘cha va bino qiyofasi emas. Odamlarning munosabati, yoshlarning kitobga qiziqishi, keksaning qadr topishi va oilaviy nizoning murosas bilan hal qilinishi — uning ko‘rinmaydigan qatlami. Kutubxonaga ixtiyoriy kelayotgan bola yoki qo‘shni keksaning

holidan xabar olayotgan yosh ma’naviy muhit o‘zgarayotganining haqqoniy belgisidir.

Mahalla madaniy xotirani saqlaydi: hunarmandlik, milliy taomlar, oilaviy marosimlar va keksa avlod tajribasi shu muhitda uzatiladi. Bu meros muzeyda muzlab qolmay, zamonaviy iqtisodiyot va ta’lim bilan uyg‘unlashishi kerak. Hunarning oila daromadiga, ustoz-shogird an’anasining yangi kasbga aylanishi madaniyat ham iqtisodiy, ham tarbiyaviy resurs ekanini ko‘rsatadi.

Ma’naviy muhitni tadbirlar soni bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Har oy o‘tkaziladigan yig‘ilishlar emas, yoshlarning kitobga qaytishi, qo‘shnilarning keksalar holidan xabar olishi, oilada zo‘ravonlikka befarq bo‘lmalik, nogiron insonni jamoaning teng a’zosi sifatida qabul qilish — haqiqiy natija shu. Mahalla faollari ana shu nozik jarayonlarni ko‘ra olishi, ularni rasmiy hisobotga aylantirib yubormasligi lozim.

Yangi O‘zbekistonda ma’naviyat va obodlik bir-biridan ajralmas tushunchalarga aylanmoqda. Chiroyli bino odamni tarbiyalamaydi, ammo unda tashkil etilgan kutubxona, kasb markazi, yoshlar klubi va ochiq muloqot muhiti jamiyatni o‘zgartiradi. Mahallaning yuksalishi ko‘zga ko‘ringan inshootdan ko‘ra, insonlar o‘rtasidagi munosabatning yaxshilanishi bilan uzoq yashaydi.

Mahalla o‘zini o‘zi boshqara oladimi?

Mahalla oldiga qo‘yilayotgan vazifalar kengaygani sari uning o‘zini o‘zi boshqarish salohiyati haqidagi masala ham dolzarb bo‘lmoqda. Agar mahalla faqat yuqoridan tushgan vazifalarni bajarsa, u ijtimoiy institut emas, ma’muriy ijrochi bo‘lib qoladi. Agar u qaror qabul qilish, resursni ustuvorlashtirish va natijani baholashda aholi bilan birga harakat qilsa, o‘zini o‘zi boshqarish mazmuni amaliy tus oladi.

Buning uchun mahalla yig‘inining fikri rasmiy marosim emas, real qaror jarayoni bo‘lishi kerak. Aholi qaysi loyihani tanlashi, qaysi oilaga qanday ko‘mak berilishi, qaysi muammo birinchi navbatda hal qilinishi haqida fikr bildirishi lozim. Shu bilan birga, qaror qabul qilgan jamoa uning natijasi uchun ham mas’uliyat oladi. O‘zini o‘zi boshqarish faqat huquq emas, javobgarlik madaniyatidir.

Mahalla uyushmasi, hokimliklar va respublika idoralari bu jarayonni qo‘llab-quvvatlashi, ammo uning o‘mini bosmasligi kerak. Uyushma tajriba va resursni birlashtiradi, mahalla esa o‘z hududining real ehtiyojini biladi. Har ikki daraja o‘rtasidagi munosabat buyruq va hisobot emas, sheriklikka qurilsa, tizim barqaror bo‘ladi.

Mahallaning kelajagi uning qancha vazifani qabul qilishi bilan emas, aholini qarorga qanchalik sherik qila olishi bilan belgilanadi. Davlat qudrati markazdagi qarorning mahallagacha yetib borishida, jamiyat qudrati esa mahalladagi tashabbusning davlat siyosatiga ta’sir qila olishida namoyon bo‘ladi. Bu ikki harakat bir-birini to‘ldiradigan mahalla haqiqiy taraqqiyot tayanchiga aylanadi.

Qonun ustuvorligi va javobgarlik

Mahalla tizimidagi har bir yangilik huquqiy asos bilan mustahkamlanmasa, u bir muddatdan keyin shaxsiy tashabbusga yoki ma’muriy topshiriqqa bog‘lanib qolishi mumkin. Shuning uchun Konstitutsiyadagi o‘zini o‘zi boshqarish qoidasi, fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi

qonunlar, mahalla raisi va “yettilik” vazifalarini belgilaydigan hujjatlar o‘zaro uyg‘un ishlashi zarur.

Qonunchilikning vazifasi faqat vakolat berishdan iborat emas. U vakolatning chegarasini, qaror qabul qilish tartibini, fuqaroning shikoyat qilish huquqini, shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish mezonini va oliyaviy mablag‘larning hisobdorligini ham belgilaydi. Mahalla tizimiga ishonch, avvalo, qoida hammaga bir xil qo‘llanishidan boshlanadi. Bir oilaga berilgan yordamning mezonini boshqa oila uchun ham tushunarli bo‘lsa, jamoa qarorni adolati deb qabul qiladi.

Institutning javobgarligi shu yerda ko‘rinadi. Mahalla raisi aholi oldida, hokim yordamchisi iqtisodiy natija, ijtimoiy xodim xizmat sifati, profilaktika inspektori xavfsizlik bo‘yicha hisobdor bo‘ladi. Lekin hisobdorlik jazolash uchun emas, vazifani aniqlashtirish uchun xizmat qilishi kerak. Xato qilgan xodimni yashirish ishonchni yemirsa, xato sababini tahlil qilib, tizimni tuzatish jamoatchilikka kuch beradi.

Mahalla uyushmasi va milliy institut shu huquqiy va tashkiliy mas’uliyatni

Ochiq muloqot — ishonch manbai

Mahalla islohotlarining eng ishonchli ko‘rsatkichi aholi bilan ochiq muloqotdir. Odamlar o‘z muammosini bemalol aytga olsa, javobning muddati va mas’uli aniq bo‘lsa, hatto muammo darhol hal etilganidan ta’dir ham ishonch saqlanadi. Aksincha, chiroyli hisobot va bajarilmagan va‘da o‘rtasidagi farq jamoada befarqlik paydo qiladi.

Ochiq muloqot savol-javob yig‘ilishi bilan cheklanmasligi kerak. U qaror qabul qilishdan oldin ehtiyojni aniqlash, ish jarayonida aholiga ma’lumot berish va natijadan keyin baholashni qamrab oladi. Mahallada yo‘l ta’miri rejalashtirilsa, aholi uning muddati va sifat talabini bilishi, mahalla byudjeti shakllansa, tushum va xarajalar ochiq bo‘lishi, ijtimoiy yordam berilsa, uning mezonini tushunarli bo‘lishi kerak.

Jurnalistik materiallar raqamlar ortidagi insonni ko‘rsatib, muammoni yashirmasdan yechim izlashi, mas’ul fikri bilan aholi ovozi yonma-yon berishi lozim. Ommaviy axborot vositasi yutuqni yoritish bilan birga natijani xolis tekshirsa, jamiyatdagi muloqot madaniyati yuksaladi.

Mahalladagi ochiq muloqot davlatga ishonchni pastdan yuqoriga qaytarib bermashtirmaydi. Inson o‘z fikri eshitilayotganini, savoli javobsiz qolmayotganini va qarorda uning manfaatini hisobga olmayotganini ko‘rsa, islohotni o‘zining ishi deb qabul qiladi. Jamiyat yuksalishining eng mustahkam poydevori ham shu — odamning o‘zgarishga ishonishi va unda ishtirok etishi.

Xulosa

“Mahalla barqarorligi va farovonligi indeks”ni joriy etish. Mahalla faoliyatini tadbirlar va ajratilgan mablag‘lar soni bilan emas, barqaror bandlik, oila daromadi, infratuzilma sifati, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, xavfsizlik, ekologik holat va aholi roziligi asosida baholash lozim. Indeks natijalarini ochiq raqamli platformada e’lon qilish hamda qo‘shimcha davlat grantlarini muammosi og‘ir mahallalarga ustuvor yo‘naltirish maqsadiga muvofiq.

Har bir mahalla uchun uch yillik taraqqiyot dasturini qabul qilish. Dasturda hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, infratuzilma ehtiyojlari, ish o‘rinlari, ijtimoiy muammolar, moliyalashtirish manbalari, mas’ul tashkilotlar va aniq natija ko‘rsatkichlari belgilanishi kerak. Hujjat aholi yig‘inida muhokama qilinib, mahalliy kengash tomonidan tasdiqlanishi, uni moliyalashtirishda mahalla jamg‘armasi, mahalliy byudjet, tashabbusli byudjet, bank kreditlari va xususiy investitsiyalar birlashtirilishi lozim.

“Mahalla yettiligi”ni professional tayyorlash va sertifikatlash tizimini yo‘lga qo‘yish. Rais va “yettilik” a‘zolari huquq, mahalliy iqtisodiyot, ijtimoiy ish, oilaviy mediatorlik, raqamli ma’lumotlar, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va aholi bilan muloqot yo‘nalishlarida muntazam o‘qitilishi zarur. Ularning faoliyatni hisobotlar soniga emas, oilalar daromad o‘lishi, takroriy ishsizlik kamayishi, murojaatlar yechimi va aholi roziligi qayta baholanishi kerak.

“Bir oila — yagona ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalish” mexanizmini joriy etish. Har bir ehtiyojmand oila uchun daromad, bandlik, salomatlik, farzandlar ta’limi va uy-joy sharoitini qamrab olgan individual reja tuzilishi lozim. Ijtimoiy xodim jarayonni muvofiqlashtirib, “mahalla yettiligi” yordam, kasbga o‘qitish, kredit va ishga joylashtirish choralari birlashtirishi kerak. Asosiy mezon oilani ro‘yxatdan chiqarish emas, uni barqaror daromad va ijtimoiy mustaqillikka olib chiqish bo‘lishi shart.

Mahallalarda “yashil va xavfsiz hudud” dasturini amalga oshirish. Har bir mahallada suv taqchilligi, energiya ta’minoti, chiqindilar, tabiiy ofatlar, jamoat va kibernetika bo‘yicha xavflar xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Suv va energiya tejamlar texnologiyalar, quyosh energetikasi, ko‘kalamzorlashtirish, chiqindilarni saralash va aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash loyihalari mahalla mikrograntlari, imtiyozli “yashil” kreditlar va davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirilishi maqsadga muvofiq.



Tuhfa

O'zbek milliy maqom va qo'shiqchilik san'ati ildizlari asrlarga tutashib ketgan. Qadim-qadimdan milliy kuylar, qo'shiqlar xalqimizning bebaho merosi sifatida yuksak qadrlanib, avloddan avlodga zavol bilmay o'tib kelayotir.



Munajat YO'LCHIYEVA,
O'zbekiston Qahramoni,
Xalq artisti, professor

Xalqimiz tabiatan san'atsevar. Qo'shiqsiz yashay olmaydi. Qo'shiq uning jonu taniga, ruhiyatiga singib ketgan. Boshiga tushgan kulfatlam, azob-uqublatlarni, og'ir zamonlar ko'rgiliklarini, talafotlarni, qo'yingki, turfa og'ir kunlarini qo'shiq bilan, kuy bilan yengib o'tgan. Hamisha uning dardlariga kuy-qo'shiqlarimiz malham bo'lgan. Yaxshi-yomon, shodlik va g'am, quvonch va iztirob, och va to'q kunlarini qo'shiq bilan baham ko'rgan, qo'shiqudan madad, kuch olib yashagan. Xalq kuylari, xalq musiqasi degan iboralar bejiz paydo bo'lmagan.

Shu bois, milliy musiqa xalqimiz tafakkurida juda yuksak darajaga ko'tarilgan. Mustaqillikka erishgach, milliy san'atimiz rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu qadim milliy



Obod go'shalar

Maymanov nafaqat Kasbi tumanidagi, balki Qashqadaryo viloyatidagi qadimiy va navqiron qishloqlardan. Hududda Murodbaxsh ota, Sohib Mulla Jalol, Luqmoni hakim, Hazrati Imom, G'oyib ota, Umar Nasafiy ziyoratgohlari va ko'hna sardoba borligi, o'zbek xalq dostoni — "Yozi bilan Zebo" voqealarining shu maskanda kechgani Maymanovning o'tmishidan, olis tarixidan dalolat.

Qishloq aholisi 28 mingdan oshdi. Keyingi yillarda qishloq qiyofasi tanib bo'lmay darajada o'zgardi, obod bo'ldi.

Maymanovliklar adabiyotga, ayniqsa, she'riyatga o'ch. Biror bir davra yo'qki, she'rsiz o'tsa. Kelin-kuyovlarning nikoh kechasi bo'ladimi, beshik to'yi, muchal to'yi va boshqa baxmlar bo'ladimi, albatta, she'rxonlik avjiga chiqadi. Balki shuning uchundir qishloqda iste'dodli ijodkorlar talaygina.

El hurmatini qozongan Shomurod baxshi kuylagan doston va termalarni keksalar yaxshi eslaydi. Afsuski, Shomi shoir kuylagan xalq og'zaki ijodi namunalarini magnit tasmlariga yozib olinmagan.

Aholi hunarmandchilikda ham biri biriga ustoz, biri biriga shogird. Kosiblar, pazandalar, kulollar, qandolatchilar, ganchkorlar, novvoylar, etikdo'zlar, sartaroshlardan tashqari zamonaviy kasb-hunarlarini egallagan yoshlar ham ko'p. Qishloqda bir nechta avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasi faoliyat yuritaypti. Mobil telefonlarni tuzatish va teleradio ustaxonalari ham anchagina.

Shu o'rinda xotin-qizlar hunarmandchiligi xususida ham to'xtalsak. Milliy hunarmandchilimiz an'analarni e'zozlab kelayotgan kashtachilar, qo'li gul chevarlar o'z mehnati bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Aytishlaricha, o'tgan asrning birinchi yarmida qishloqda maktab bo'lmagan. Yoshlar ilm olish maqsadida o'n-yigirma chaqirim yurib, Koson tumani markazidagi maktablarga qatnagan.

— Tevarak-atrofimizdagi qishloqlarning bolalari ham Kosondagi maktabda o'qirdi. Transport qayog'da, deysiz. Uzoq masofaga piyoda qatnardi. Buning ustiga bolalar oyoqyalang, yupun kiyimlarda yurardi, — deydi mehnat faxriysi Ramazon Ziyodullayev. — Keyinchalik odamlarning

san'atimizni dunyo tan olib, yuksak e'tirof etayotgani hayratli voqea. Bunga o'zim xorijiy davlatlarga ijodiy safarlarga borganimda hamisha guvoh bo'laman.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi, farmon va qarorlari tufayli yurtimizda Xalqaro maqom va baxshichilik san'ati anjumanlari, xalqaro "Lazgi" raqs festivallarini o'tkazish an'anaviy tarzda yo'lga qo'yilgani, yangi O'zbekiston nufuzini dunyoga yoyishda, boqiy san'atimizni targ'ib qilishda juda katta ahamiyat kasb etayotgani quvonchli hodisa. Ayniqsa, "Shashmaqom"ning UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof qilinishi hamda uning Reprerentativ ro'yxatga kiritilishi san'atimiz nufuzi yanada yuksalishida juda ulkan va tarixiy voqealik bo'ldi.

So'nggi yillarda mashhur, el sevgan buyuk san'atkorlar — Komiljon Otaniyozovning 100 yilligi, Botir Zokirovning 85 yilligi keng nishonlandi. Yana bir voqea — Andijonda mashhur hofiz Sherali Jo'rayevning ijod maktabi tashkil etilganini ham milliy qo'shiqchilik san'atimiz rivojiga qaratilgan yuksak e'tibor deb bilamiz.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, yozuvchi va publitsist Ashurali Jo'rayev qalamiga mansub "Oltin ovozlarni" kitobi nashrdan chiqdi. Ushbu to'plam o'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan va o'z ovozi, betakror ijro uslubi bilan maktab yaratib ketgan buyuk ustozlarimiz — akademik Yunus Rajabiy, tengsiz hofizlar Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, Ma'murjon Uzoqov, Muhammadjon Mirzayev, Botir Zokirov, Faxriddin Umarov kabi el sevgan san'atkorlarning ibratli hayoti, ijod yo'lidagi yuksak mahoratlari teran yozilgan essalar bilan boshlandi. Aslida, bu ulug'larning har biri bir kitobga arziydi.



Abdulla AYIZOV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

uyi maktab vazifasini bajardi. Mutaxassis o'qituvchilar deyarli yo'q edi. Mana, endi qarang, birgina bizning qishloqdagi bir emas, beshta umumta'lim maktabida yoshlar zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya olaypti. Ikkiti bolalar bog'chasi kichikintoylar ixtiyorida. Bu kunlar uchun beadad shukrona aytasak arziydi.

Darvoqe, qishloqdagi ilm maskanlari ko'rkamlashdi. Uzoq yillardan buyon orzu qilib kelingan zamonaviy maktab binolari foydalanishga topshirildi. Fan kabinetlari, sport zallari, keng va yorug' kutubxonalar o'quvchilar ixtiyorida. Yoshlar kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganyapti. Qishloqdagi zamonaviy, ko'rkam texnikumda yoshlar o'zi orzu qilgan kasb-hunarlarini qunt bilan o'zlashtiraypti. Ularga sohasining ustasi bo'lgan tajribali murabbiylar ustozlik qilmoqda.

Kitobni zavq va mehr bilan o'qish jarayonida el ardoqlagan, muxlislari behisob bo'lgan mashhur san'atkorlar Sherali Jo'rayev, Bobomurod Hamdamov, Otajon Xudoyshekurov, O'rtiq Otajonov, O'lmas Saidjonov, Hasan Rajabiy, Matluba Dadaboyeva, Rahmatjon Qurbonovning betakror ovozlarni qayta tinglagandek bo'lasiz. Yana bir bor ularning qo'shiq dunyosiga ma'naviy sayohat qilasiz. Bu el sevgan san'atkorlar safida kamina haqida ham mazmunder esse yozgani uchun muallifga minnatdorlik bildiraman.

Mamnuniyat bilan ta'kidlamochimanki, Ashurali Jo'rayev har bir mashhur san'atkorning hayoti va ijodi, nihoyatda o'ziga xosligini, betakrorligini, ovozlardagi noyob qochirimlar, avjlam, ijro uslublaridagi yoqimli jozibani



xuddi jonli ijrodagidek, jonli misralarda yorqin ochib berishga astoydil intilgan. Bu muallifning, ayniqsa, milliy qo'shiqchilik san'ati sirlarini puxta o'rganiganini namoyon etib turibdi.

Muallif mashhur san'atkorlarning ijod yo'llari va barhayot qo'shiqlari, yulduzlar kabi porlab turgan repertuarlarini juda puxta o'rganib, kitobni "Oltin ovozlarni" deb nomlagani har jihatdan tahsinga loyiq. Aslida, o'zbek milliy va mumtoz qo'shiqchilik va ashulachilik san'atimizda haqiqiy oltin ovozlarni yetarli. Bir kitobda ularning hammasini jamlash imkonsiz.

Bu kitobni barcha san'at muxlislari zavq-shavq va harorat bilan o'qishiga ishonaman. Ayniqsa, respublikamizdagi musiqa san'ati oliy ta'lim muassasalarida, musiqa maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar,

musiqashunos mutaxassislar, bo'lajak olimlar va ayniqsa, talaba yoshlar va o'quvchilar o'qib-o'rganishi hamda qo'shiqchilik san'ati sirlarini chuqur bilishi uchun o'ziga xos teran manba va qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Men Ashurali Jo'rayevni talabalik yillarimdan yaxshi bilaman, yozganlarini hamisha qiziqish bilan o'qib kelaman. San'at sohasining turli yo'nalishlarida bo'ladigan anjumanlar, tadbirlar, ko'rik-tanlovlarda muntazam qatnashib, ajoyib maqolalar yozgani va san'at sohasi namoyandalari bilan qiziqarli suhbatlari o'quvchilar e'tiboridan chetda qolmas edi. San'atni yozish uchun san'atni his qilish va sevish kerak. Bu sohani Ashurali aka yuksak mahorat bilan yoritib kelayotgan ijodkor. Uning o'ziga xos qalami, aytar so'zi bor.

Tanlagan mavzusini puxta o'rganib, mohiyatiga kirib, chuqur anglab so'ngra yozadi. Shu bois, Ashurali aka yozgan maqolalar ko'pincha bahis-munozaralarga sabab bo'ladi.

Yaxshi eslayman, mustaqilligimizning dastlabki yillarida Yevropaning qator mamlakatlarini, AQSHga qilgan ijodiy safarlarimiz haqida "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida salmoqli maqolalari va suhbatlari e'lon qilingan. Xullas, Ashurali Jo'rayev o'zbek matbuotida haqiqiy san'at jurnalisti bo'lib tanildi va jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi.

Ayniqsa, Ashurali Jo'rayevga o'zbek milliy estrada san'ati asoschisi, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov hayoti va ijodi haqida yozgan "Yurak bo'ronlari" ma'rifiy romani katta shuhrat keltirdi.

San'at sohasining fidoyi va jonkuyar ijodkorlaridan biri, ustozimiz Ashurali Jo'rayevning ushbu yangi kitobi yana bir bor san'at ixlosmandiga muborak bo'lsin. Umid



“ Bu kitobni barcha san'at muxlislari zavq-shavq va harorat bilan o'qishiga ishonaman. Ayniqsa, respublikamizdagi musiqa san'ati oliy ta'lim muassasalarida, musiqa maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar, musiqashunos mutaxassislar, bo'lajak olimlar va ayniqsa, talaba yoshlar va o'quvchilar o'qib-o'rganishi hamda qo'shiqchilik san'ati sirlarini chuqur bilishi uchun o'ziga xos teran manba va qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

qilamizki, muallif boshlagan euzu va xayrli ijodiy ishlarini davom ettirib, yangi oltin ovozlarni kashf etib, yangi kitoblarni yana tortiq qilishdan charchamaydi. Asrlar davomida zavol bilmay, yuraklarni mangu hayratlarga to'ldirib kelayotgan o'zbekning oltin ovozlari, boqiy navolari abadiy yangrayveradi!

XUDDI ERTAKLARDAGIDEK...

— O'quv muassasamizda o'qigan bitiruvchilarning ko'pi turli oliy o'quv yurtlariga o'qishga kiradi. Bundan, albatta, faxrlanamiz. Kasb-hunar egallagan yoshlarning ish bilan ta'minlanishi ham doimiy e'tiborda, — deydi texnikum direktori, texnika fanlari doktori, professor Bobonazar Sattorov.

Qishloqda o'zining hunari, kasb-kori bilan el o'rtasida hurmat-e'tibor qozonib kelayotgan odamlar ko'p. El koriga yarab, chiroyli va bejirim, ko'rkam beshiklar, eshik va derazalar, naqshinkor darvozalar hammaning havasini keltiradigan so'rilar yasab tilga tushgan usta Hasan bobo nomini hamqishloqlar doimo hurmat bilan eslaydi. Bugun uning farzandlari, nevara va chevaralari ota-bobolari kasb-hunarini e'zozlab, duradgorlar sulolasiga sodiqligini amalda isbotlayapti. Usta Mustafo bobo, usta Shoymurod, usta Gulmurod, usta Muzaffar, usta Elmurod... Duradgorlar avlodi bo'lgan bu ustalar qo'lida sayqal topgan milliy hunarmandchilik namunalarini aytmaysizmi?

— Maymanovlik hunarmandlar yasayotgan ro'zg'or buyumlari xaridorgir. Qishlog'imiz ustalari bir nechta joyda eng



so'nggi urfdagi, har jihatdan qulay va chiroyli eshik, derazalar yasayapti. Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish shoxobchalari, dehqon bozorlari, o'ndan ortiq oshxonalar, bichish- tikish sexlari, eh-he, aytaversak gap ko'p. Bularning hammasiga qishloq ahlining ishchanligi, mehnatkashligi sabab...

O'tgan asrning 50-60-yillarida qishloqda sanoqli shifokor bor edi. Qo'shni



Qarliq, Qatag'on, Meset qishloqlarida esa birorta shifokor bo'lmagan. Shuning uchun ham sog'liqni saqlash tizimidagi barcha muammolarni yechish shifokor Gavhar Abdullayeva zimmasida bo'lgan. O'sha paytlarda keng tarqalgan kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni uzoq shaharlardagi shifoxonalarga olib borib yotqizish imkoniyati yo'q edi. Homilador ayollar tug'uruqxona nimaligini bilmagan. Hammasini Gavhar opa eplagan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Gavhar Abdullayeva qalbi b'ururga to'lib bunday degan edi: "Xudoga shukr, dorilamon kunlarga yetdik. Ilohim, tinchligimizga ko'z tegmasin. Qaranglar, qishlog'imizda bir paytlari barmoq bilan sanarli vrachlar ishlagan bo'lsa, endi ular safi kengaymoqda. Bu kunlarning qadriga yetishimiz kerak!".

"Bundan o'tiz yillar oldin odamlar nega faqat qishda to'y qilardi? Yozda meva-cheva to'kin bo'lishi, yog'ingarchilik bo'lmasiligi, xullas, yozda to'y qilinsa, tashvishsiz o'tishi hech kimning xayoliga kelmaganmikan?" degan savolimizga tadbirkor Elmurod Rahmonov bunday javob berdi:

— Qiziq zamonlar o'tidi-da. Qishda to'y qilinishining sababi paxta terimi edi. Paxta mavsumi naq dekabr tugagunga qadar davom etardi. Yig'im-terim yakun topgach, qishloq brigadirilari bir joyda to'planib, bu

yil kimning to'yi bo'lishini aniqlab kunini belgilardi. Xullas, fevralning oxirigacha qishloqning to'yli o'tkazilishi kerak edi. Chunki bahordan yana dala ishlari boshlanardi. Qish-qirovli kunlarda hovlini pana qilish uchun chodir yopilardi. Hozir-chi, qanday mazza! Qishlog'imizda zamonaviy ikkita to'xona bor. Yilning xohlagan kunida to'y belgilaysiz...

— Keyingi o'n yillikda mamlakatimizdagi barcha go'sha qatori Maymanovda ham xayolimizga kelmagan ijobiy o'zgarishlar bo'lyapti, — deydi "Istiqlol" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Turdi Xolmurodov. — Avvalo, qishlog'imizga shaharcha maqomi berildi. Bundan qishloqdoshlarimiz behad quvondi. Hududda "Istiqlol", "Sohibkor", "Maymanov", "Yangi Maymanov" mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyat yuritmoqda. Hozirgacha 5 ta zamonaviy maktab o'quvchilar ixtiyorida edi, yaqinda yana bitta maktab qurildi. Tog' hududidan qatnayotgan o'quvchilar maktabga kelishga qiynalardi. Mana, yaqindan boshlab tog'lik bolalar uchun ham 380 o'rinni ilm maskani qurilishi boshlandi. Ikkiti davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 15 ta xususiy MTT faoliyat yuritaypti. "Parvoz", "Ilmu ziyo" o'quv markazlarida saboq olgan o'quvchilarning ko'pi xalqaro sertifikatlarga ega bo'lyapti.

Ko'chalarni kezip, ko'nglimda ajib bir yorug'lik his etaman. Qishloqning 60 chaqirim masofadagi ichki yo'llari asfalt qilingan. Buni hatto orzu qilish ham mumkin emasdi. Tungi chiroqlar yoritib turgan piyodalar yo'lakchalarini aytmaysizmi?

Qishloqda stadionlar ham ko'paymoqda. Bir nechta sun'iy futbol maydoni ishqibozlar bilan gavjum. Yoshlar sportga juda o'ch. Ularning talabi inobatga olinib, voleybol va tennis maydonlari qurilyapti. "Gulshan" madaniyat va aholi dam olish markazidagi to'garaklar ham yoshlar ixtiyorida.

Ana, ertaklar shaharchasiga ham kelib qoldik. Tuman markazidan qishloqqa kiraverishdagi zamonaviy usuldagi namunali uy-joylar, yo'l yoqasidagi tadbirkorlik subyektlari haqiqatan ertaklar shaharchasini eslatadi...

Xullas, shu kunlarda yangi O'zbekistonimizning har bir fuqarosi qatori maymanovliklar ham Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini munosib kutib olish taraddudida. Maymanov esa kundan kunga go'zallashib, obodonlashib boryapti.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746. 29609 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy